
HAMKORLIKDA TADBIRLAR O'TKAZILMOQDA



Hamkorlikda tadbirlar o'tkazilmoqda

Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti, huquq va erkinliklar daxlsizligining asosiy kafolatidir. Shu bois mamlakatimizda fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, ularda qonunlarga hurmat va itoatkorlik ruhini yanada kuchaytirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilning 2 oyi davomida Majburiy ijro byurosi So'x tuman bo'limi hamda IIB yo'l harakati xavfsizligi xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlar davomida yo'l harakati qoidalarini buzganligi uchun belgilangan jarimalarni o'z vaqtida to'lamagan qarzdorlarga tegishli jami 5 ta avtotransport vositasi jarima maydoniga olib kirildi va barcha avtotransport egalari qarzdorlikni bartaraf qilganligi sababli avtomashina jarima maydonidan chiqarildi. Bundan tashqari, tadbir davomida yo'l harakati qoidalarini buzganlik bilan bog'liq byuro ish yurituvida bo'lgan 189 ta 91.309 mln. so'mlik ijro hujjatlari undirilib, ijro hujjatlari tamomlandi.

Shu bilan birga barcha xaydovchilardan yo'l xarakati qoidalariga amal qilgan xolda belgilangan tezlik meyorlarlariga amal qilishlaritalab etiladi.

MIB So'x tuman bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-03-01 09:43:13